

UDK 631.6; 626.8

**О‘СИМЛИКЛАРНИ ТУВАКЧАЛАРДА YETISHTIRISH VA
KO‘CHAT USLUBINING AHAMYATI**

Sh. J. Imomov - “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti rektori, t.f.d., professor.

Email: shavkat-imomov@rembler.ru

S.S. Orziyev - “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti.

Email: sorziyev891@gmail.com

H. H. Olimov - “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti dotsenti

R.B. Hasanov - “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada poliz va sabzavotchilikda xosildorlikni oshirishda ko‘chat orqali yetishtirishning ahamiyati, ko‘chat uslubida yetishtirilgan maxsulotlarda biogumus va torfdan tayyorlangan tuvakchalarda hosilni yetishtirish avzalligi haqida malumotlar berilgan.

Tayanch so‘zlar: Issiqxonalar, poliz va sabzavot ekinlari, oziq ovqat mahsulotlari, oziqaviy moddalar, oziqlanish maydoni, o‘shish davri, torf sanoati, iqlim, tuproq, gidrogeologik sharoitlar, o‘simliklarning biologik xususiyatlari, polietilen qopcha, sapol va polimer materiallar.

Yopiq gruntlarda ko‘chatlar yetishtirish jarayonini to‘lig‘icha ilmiy asoslangan mexanizmlar yordamida amalga oshirishni joriy etish bugungi kunda sohaning dolzarb muammolaridan biridir.

Doimiy o‘shish joyiga ko‘chirib o‘tqazishga mo‘ljallangan lekin, hosil beruvchi organlari hali shakllanmagan yosh nihol ko‘chat deb ataladi. O‘simliklarni ko‘chat orqali o‘stirishning mohiyati, ular hayotining birinchi boshlanish davrida oziqa va namlik yetarli bo‘lgan kichik oziqlanish maydonda, sun‘iy iqlimli sharoitda o‘sadi, so‘ng ochiq yoki himoyalangan yer inshootlariga ko‘chirib o‘tqazib o‘stirishdan iborat.

Nixolni issiqlik extiyoji bo‘yicha ochiq dalada yetishtirish imkoniyati bo‘lmaganligi sababli himoyalangan yerda o‘stiriladi. Ochiq yerdagi sabzavot ekinlarining yarmidan ko‘pi va himoyalangan yerda taxminan 90 foizi ko‘chat bilan ekiladi (1-rasm). Ko‘chat uslubini o‘shish davrining oxirida katta oziqlanish maydonini talab qiladigan va zaruriyat bo‘lganda erta mahsulot olish uchun mo‘ljallangan ekinlarda qo‘llash maqsadga muvofiqdir [1].



1-rasm. O‘simliklarni ko‘chat orqali o‘stirishni ko‘rinishi.

Hozirgi kunda ochiq va himoyalangan yer uchun ko‘chatlar asosan isitiladigan plyonkali issiqxonalarda, tomorqa va dala hovlilarida esa plyonkali isitiladigan kichik issiqxonalar (parniklar)da yetishtiriladi.

Himoyalangan yer uchun qishki-bahorgi aylanishda ko‘chatlar isitiladigan qishki oynavand yoki plyonkali issiqxonalarning ko‘chat bo‘limida yetishtiriladi. Boshqa aylanishlar uchun ko‘chatlar maxsus shu maqsad uchun moslangan inshootlarda yetishtiriladi.


Ko‘chat uslubi odatdagicha urug‘larni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yerga ekishga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Ko‘chat odatda 30-80 kun mobaynida o‘stiriladi. O‘simlik rivojlanishidagi erishilgan ilgarilash yerda hosil olish imkonini beradi. Erta olingan hosilni yuqori baholarda sotish qo‘shimcha daromad olishni ta‘minlaydi. Ilgarilash tufayli ko‘chat uslubi o‘shish davrini cho‘zish imkonini beradi. Bu o‘simlik hosildorligini oshiradi va o‘shish davri uzoq davom etadigan, ammo issiqlik yetishmaydigan hamda urug‘dan ekilganda hosilni to‘liq to‘play olishga sharoit bo‘lmaydigan shimoliy mintaqalarda issiqsevar ekinlarni yetishtirishga va u yerdagi sabzavotlar turini boyitishga imkon yaratadi. Ko‘chat uslubi o‘simlik hayotining boshlarida yerga bo‘lgan ehtiyojini kamaytiradi [2]. O‘simliklarni oziqa, namlik, issiqlik, yorug‘lik va boshqa omillar bilan yaxshiroq ta‘minlash, hali zaif nihollarni zararkunandalar, kasalliklar, begona o‘tlardan yaxshiroq himoya qilish, ularga qarshi kurashda mehnat sarfini kamaytirishga imkon beradi. Ko‘chat uslubida urug‘ sarfi doimiy joyga ekilganiga ko‘ra 3-7 marta kamayadi. Himoyalangan yer sharoitida o‘simliklarni ko‘chat orqali yetishtirish mahsulotchiqish davrini uzaytirib, sun‘iy yoritish manbalaridan iqtisodiy tomondan samarali foydalanishga imkoniyat yaratadi [3].

Tannarxining yuqoriligiga qaramay ko‘chat uslubi iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydi va u sabzavotchilikda keng miqyosda qo‘llaniladi va ayrim hollarda ko‘chatsiz sabzavotlarni yetishtirish mumkin emas. Ko‘chat yetishtirishning usullari va texnikasi, ko‘chatidan yoki ko‘chatsiz o‘stirish uslublarini aqliy ravishda to‘g‘ri tanlash sabzavotchilik iqtisodi uchun muhim ahamiyatga ega [4].

Ekinlardan mo‘l hosil olishda beshta tabiiy omil (suv, mineral oziqlar, issiqlik, yorug‘lik, havo) ning ahamiyati juda katta. Bu omillar o‘simlikning o‘shishi uchun qulay tabiiy sharoit vujudga keltiradi va natijada ekindan mo‘l hosil olinadi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining suvga ehtiyoji iqlim, tuproq, gidrogeologik sharoitlar,

o'simliklarning biologik xususiyatlariga bog'liq holda turlicha bo'ladi [5].

Xorijiy mamlakatlarning ko'chat yetishtirish uchun torf sanoatida yuqori torf va tsellylozaapalashmasidan tayyorlangan, dalaga ekilgandan keyin ma'lum muddatdan so'ng o'z xususiyatini yo'qotadigan yelimlovchi moddalar qo'shilgan, ichi bo'sh tuvakchalar ishlab chiqarilmoqda. Ular bo'sh tuvakcha yoki uyali bloklar turli ko'rinishda tayyorlanadi [6]. Bunday tuvakchalar tuproqda tez parchalanib ildizning o'sishiga qarshilik ko'rsatmaydi (2-rasm).



1 va 2 – tubli va tubsiz plastmassali ichi bo'sh tuvakchalar, 3 – ichi bo'sh torf tuvakchasi, 4 – polietilen qopcha, 5 – ichi bo'sh torfli blok, 6 – plastmassali blok, 7 va 8 – torfli kubik va tabletkalar, 9 – torfli blok

2-rasm. Ko'chat yetishtirish uchun kubik, tuvakcha, blok va kassetalar

Qo'lda ekilganda ko'chat o'stirish uchun bazan polietilen qopcha, sapol va polimer materiallardan tayyorlangan tuvakchalardan foydalaniladi. Lotok yoki kasseta ko'rinishidagi qattiq plastmassadan tayyorlangan uyali bloklar ham (40-70 uya) qo'llaniladi. Ekishda ulardagi ko'chatlar tuprog'i bilan olinadi [7].

Tuvakli ko'chat kuchliroq ildiz tizimiga ega bo'lib, ko'chat o'sishda to'siqning yo'qligi tufayli 12—14 kun oldin hosil olish imkonini beradi. Hosildorlik bunda 20-30 protsentga ortadi [8].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. С.А. Юнусов, З.Т. Абдиев 100 китоб тўплами иссиқхоналарда сабзавот кўчатчилиги 18-китоб,5-8- betlar.

2. S.S. Orziyev, H.H.Olimov, T.U.Amrulloev, S.K.Sobirov Mechanization of technological processes destruction of transverse pawls in cotton rows // **International journal for Innovative engineering and Management Research IJIEMR Transactions**, online available on 13th April 2021/ Link: <https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/Issue-4>

3. Orziyev.S.S, Amrulloev T. O, Husenov O'. F, Halimov T. A, Imomov Sh. J. Ko'chat yetishtirishda bazalt va biogumus qadoqchalarini qo'llash laboratoriya tajribalari // **"Ijodkor yoshlar va innovatsion taraqqiyot"** mavzusidagi xalqaro an'anaviy 7-ilmiy-amaliy anjumani /(Buxoro, 26-27 aprel 2022y) / @tiiamebf.uz
4. В.И. Зуев, О. Қодирхужаев, М.М. Адиллов, У.И. Акромов Сабзавотчилик ва полизчилик Тошкент – 2009 .
5. Жўраев А. А. Агрегатнинг бир ўтишида ғўза қаторлари орасида бўйлама пол ҳосил қиладиган қурилма параметрларини асослаш: техника фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертация. – қарши - 2021, 14 – бет.
6. В. Зуев, А. Абдуллаев Сабзавот экинлари ва уларни етиштириш технологияси, Тошкент—“Ўзбекистон” – 1997, 281-бет.
7. N.Sh. Imomova, S.S. Orziev, K.I Ruzikulov. High voltage impulse to organic waste anaerobic treatment device with current supply // **Neo Science Peer Reviewed Journal Volume 4, Dec. 2022** ISSN (E): 2949-7701/www.neojournals.com
8. ziyonet.uz